



## Methods of increasing the efficiency and financing of innovation projects of enterprises

Muhayyo TOKHTASINOVA<sup>1</sup>, Orifjon KARIMOV<sup>2</sup>

Fergana Polytechnic Institute

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received April 2023  
Received in revised form  
15 May 2023  
Accepted 25 May 2023  
Available online  
15 June 2023

**Keywords:**

innovation,  
Innovation Strategy,  
Innovation Management,  
enterprise,  
financing,  
investment,  
competition,  
startup.

### ABSTRACT

The introduction of effective methods of financing innovative projects in accordance with national and international templates is an extremely important task. The experience of leading innovative enterprises shows that in the context of a shortage of resources, the application and improvement of modern modeling methods of large innovative projects is considered a vital necessity, creating high production efficiency.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss4/S-pp44-49>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Korxonalarining innovatsion loyihalarining samaradorligini oshirish va moliyalashtirish usullari

### ANNOTATSIYA

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning samarali usullarini milliy va xalqaro andozalarga muvofiq joriy etish o'ta muhim vazifadir. Yetakchi innovatsion korxonalar tajribasi shuni ko'rsatadiki, resurslar taqchilligi sharoitida yirik innovatsion loyihalarini zamonaviy modellashtirish usullarini qo'llash va takomillashtirish hayotiy zarurat hisoblanib, u ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikni yaratib beradi.

**Kalit so'zlar:**

innovatsiya,  
innovatsion strategiya,  
innovatsiyalarni boshqarish,  
korxonalar,  
moliyalashtirish,  
investitsiya,  
raqobat,  
startup.

<sup>1</sup> Senior teacher, Economics department, Fergana Polytechnic Institute.

<sup>2</sup> Teacher, of the "Economics" department, Fergana Polytechnic Institute.

## Методы повышения эффективности и финансирования инновационных проектов предприятий

### АННОТАЦИЯ

#### Ключевые слова:

инновации,  
инновационная стратегия,  
управление инновациями,  
предприятие,  
финансирование,  
инвестиции,  
конкуренция,  
стартап.

Внедрение эффективных методов финансирования инновационных проектов в соответствии с национальными и международными шаблонами является чрезвычайно важной задачей. Опыт ведущих инновационных предприятий показывает, что применение и совершенствование современных методов моделирования крупных инновационных проектов в условиях дефицита ресурсов является жизненной необходимостью, которая создает высокую эффективность производства.

Bugungi kunda innovatsion rivojlanish ilm-fan va yuqori texnologiyalarning muttasil ortib borayotgan kuchiga asoslanadi va zamonaviy sivilizatsiya sharoitida jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'liga aylanib bormoqda. Innovatsion yondashuvning asosiy xususiyati shundaki, ilmiy-texnikaviy faoliyat sohasi hududlarni rivojlantirishda ustunlik qiladi va iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va atrof-muhitni muhofaza qilishning maqbul kombinatsiyasini ta'minlaydi.

Bozor iqtisodiyotida korxonalar o'rtasida raqobatning kuchayishi davrida ishlab chiqarishga innovatsiyani joriy qilish moslanuvchanlikni oshishini ta'minlaydi. Shuning uchun ular o'z faoliyatida istiqbolli tadqiqot guruhlarini tashkil etib, oxirgi bosqichda sotish va sotishdan keying xizmatlarni faol rivojlantirishni ko'zda tutadi. Innovatsiyani shartli ravishda ikki darajaga bo'lish mumkin.

*Birinchi*, ilk bor ishlab chiqarishga tatbiq etiladigan yangilik, kashfiyot, g'oya hisoblanib, ular tashabbuslarni tatbiq etish evaziga birlamchi ustunlikka ega bo'ladi.

*Ikkinchi*, qayta tatbiq etilayotgan kashfiyot, nou-xau, g'oya va yangilik bo'lib, ular jahonda yangilik hisoblanmaydi. Birinchi darajali innovatsiya barcha korxonalarda tatbiq etilmasada, lekin ikkinchi darajali innovatsiyalar raqobatda saqlanib qolishni xohlagan barcha korxonalarga tatbiq etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Zamonaviy ishlab chiqarish korxonani innovatsiyaga, yangi texnika va texnologiyani amaliyotga joriy etishga, yangi mahsulot va xizmatlardan foydalanishga undaydi.

Xo'jalik yuritishning zamonaviy shart-sharoitlarida iqtisodiy o'sishning sur'ati va sifatini ta'minlash, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish, milliy iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlari mutanosib rivojlanishiga erishish innovatsion xarakterga ega bo'lmog'i lozim. Bunga erishishning bir muncha murakkabligi korxonada doim tanlov oldida turishi, ya'ni agar yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarilmasa ertami-kechmi tanazzulga uchrashi, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishning katta xarajatlar bilan bog'liqligi kabi omillar bilan izohlanadi.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning oqilona tizimini yaratish orqali moliyaviy resurslarni jamlash va ularni innovatsion jarayonlarning ustuvor sohalariga yo'naltirish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini loyihalashtirish, tadqiq etish va tashkil qilish, ishlanmalar va tashkiliy jarayonlarni, yangi turdagi texnika va texnologiyalarni, ish va xizmatlarni, shuningdek, boshqaruvning yangi shakl va uslublarini yaratish va joriy etishga yo'naltirilgan pul mablag'laridan foydalanishdir.

Innovatsion loyihaning mahsulot hayotiylik sikli barcha bosqichlarida zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligining yuqori darajasi bozor tomonidan mahsulot yetarli darajada qabul qilinmasligi bilan bog'liq xatarlarni kamaytiradi va innovatsion faoliyat samaradorligini oshiradi.

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning quyidagi shakllari mavjud:

1. davlat tomonidan moliyalashtirish;
2. korxonaning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish;
3. bank kreditlari orqali moliyalashtirish;
4. venchur moliyalashtirish;
5. lizing;
6. forfeyting;
7. aralash moliyalashtirish va boshqalar.

Yangidan tashkil etilayotgan innovatsion kompaniyalarning (startup) moliyasi zamonaviy korporativ moliya nazariyasi va amaliyotini o'rganishning ob'yekti hisoblanuvchi o'rta va yirik biznes korxonalari moliyasidan sezilarli darajada farq qiladi. Har qanday startupdan farqli o'laroq, taraqqiy etgan, operatsion faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilgan kompaniyalar moliyasi zamonaviy korporativ moliyani o'rganish ob'yekti hisoblanadi. Ushbu holatda kompaniyaning operatsion faoliyati deyilganda, kompaniyaning mahsulot ishlab chiqarish va sotish, xizmatlarni taqdim etish, ishlarni bajarish bilan bog'liq asosiy faoliyati tushuniladi. Bunday kompaniyadagi moliyachilarning vazifasi – moliyaviy oqimlarni kompaniya faoliyatining samaradorligini oshirish uchun yo'naltirishdan iboratdir.

Moliyachi kompaniya kapitali qiymatini oshirish uchun uning tarkibini qayta ko'rib chiqishi lozim, shu bilan birgalikda u kompaniya uchun eng foydali bo'lgan dividend siyosatini belgilashi, foiz to'lovlarini to'lash borasida optimal sxemalar ishlab chiqishi, oddiy aksiyalarni so'ndirish va shu kabi masalalar bilan shug'ullanishi kerak bo'ladi.

Yangidan tashkil etilayotgan biznesda bunday global muammolar mavjud bo'lmasada, tadbirkorning vazifasi ancha murakkab bo'lib, u ham bo'lsa korxonada faoliyatini moliyalashtirishga mablag'lar izlab topish va ularni jalb qilishdan iboratdir. Korporativ moliya nazariyasiga ko'ra, har qanday kompaniyaning barcha pul oqimlari uchta asosiy guruhga bo'linadi: operatsion faoliyatdan olinuvchi pul oqimlari, investitsion faoliyatdan olinuvchi pul oqimlari va moliyaviy faoliyatdan ko'riluvchi pul oqimlari.

Agar biz rivojlanishning dastlabki bosqichida bo'lgan yosh innovatsion kompaniyani tahlil qiladigan bo'lsak, u holda tadbirkorning na aktivlari va na o'z kapitali borligiga guvoh bo'lamiz. Tadbirkorning birgina narsasi, u ham bo'lsa, uni bozorga olib chiqish orqali pul ishlashi mumkin bo'lgan ixtiros mavjud.

Ko'p hollarda kichik va o'rta biznes korxonolari korporatsiyalardan farqli ravishda tijorat krediti olishda jiddiy muammolarga duch keladilar, chunki kredit olish uchun quyidagilar bo'lishi talab etiladi:

1. kredit ta'minoti uchun aktivlar;

2. foiz to'lovlarini vaqtida hisob-kitob qilish imkoniyatini beruvchi operatsion faoliyatda olinuvchi pul oqimlari.

Yangi tashkil etilgan kompaniyalar aksariyat hollarda kredit ta'minoti uchun likvid aktivlarga va yetarlicha o'z kapitaliga ega bo'lmaganlari holda, foiz to'lovlarini to'lash borasida jiddiy muammolarga duch keladilar. Demak, innovatsion startaplarning korporativ moliyadan yana bir farqi shundaki, ular ko'pchilik holatlarda kredit mablag'lari ololmaydi. Bundan tashqari, yirik kompaniyalar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish uchun keng foydalanadigan klassik moliyaviy vositalardan (masalan, obligatsiyalar, tijorat veksellari, bank aktseptlari va boshqalar) yangi tashkil etilayotgan korxonalar yetarlicha aktivlari mavjud emasligi bois hali foydalana olmaydilar.

Innovatsion tadbirkorlikda moliyalashtirishning an'anaviy usullari va manbalaridan foydalanish imkoniyatlari juda ham cheklangan, ba'zi holatlarda esa bunday manba va usullardan foydalanishning umuman iloji yo'q. Ertami-kechmi har qanday startap asoschisining oldida: "Zarur moliyalashtirish manbaini qayerdan topish mumkin, va ularning optimal tarkibi qanday bo'lishi kerak?" – degan savol paydo bo'ladi.

Bunda mablag'lar kiritish borasida qarorlar qabul qilishda tadbirkorlikning rivojlanish bosqichi va moliyaviy qaytimning noaniq istiqbollari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Dastlab, daromadlar egri chizig'i investitsiyalar darajasining foyda darajasidan ortiqchaligini aks ettirgan holda, keskin pasayib boradi. So'ngra, bozorga yangi mahsulot yoki xizmatlarning kirib borishi asnosida daromadlar egri chizig'i ko'tarilib boradi. Qachonki, kompaniya yetuklik darajasiga erishar ekan, daromadlar egri chizig'ining o'sishi sekinlashishi mumkin.

Yosh kompaniyalar rivojlanishining dastlabki bosqichlarini moliyalashtirishga "ekish bosqichi" (seed stage), ishga tushirish bosqichi (startup) va ilk o'sish davri (Early Stage) bosqichlari kiradi. Ushbu holatda "ekish" va "startup" bosqichlari o'rtasidagi chegara shartli hisoblanadi, chunki har ikkala bosqichda ham salbiy pul oqimiga ega bo'lgan, o'z faoliyatini samarali yo'lga qo'yishda tajribaga ega yoki tajribasi yetarlicha bo'lmagan yosh innovatsion kompaniyalar nazarda tutiladi. Ushbu oqimlar ko'pchilik holatlarda yoki umuman amalda mavjud yoki mavjud bo'lmasada, unchalik ham ahamiyati katta bo'lmagan operatsion faoliyatdan ko'riluvchi oqimlar hisobiga qoplanishi mumkin emas. Kompaniya bozorda o'xshashi bo'lmagan yoki mavjud bo'lganlaridan sifat jihatidan farq qiluvchi yangi mahsulotlarni taklif qiladi.

So'nggi yillarda respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va samaradorligini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatimiz Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi 6198-son Farmoniga muvofiq, Respublikaning 13 ta hududini innovatsion hududga aylantirish belgilangan. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda aholining iqtisodiy-ijtimoiy darajasini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish mazkur qaror ijrosining uzviy qismidir.

Innovatsion hududlardagi muammolar yechimiga qaratilgan 13,1 mlrd so'mga teng 22 ta startap loyiha davlat grantlari hisobidan moliyalashtirilgan. Natijada eksportbob va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilib, 196 ta yangi ish o'rnini yaratiladi. Shu tarzda, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 1 tadan ajratib olingan tumanlarida innovatsion g'oyalarga asoslangan startap loyihalari qo'llab-quvvatlanadi, hududlarning intellektual va texnologik salohiyati bosqichma-bosqich oshirib boriladi.

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan 2019–2021-yillarda jami 90 ta startap loyiha tanlov asosida moliyalashtirilgan. Shulardan, sog'liqni saqlash sohasida 18,7 mlrd so'mlik 20 ta, axborot texnologiyalar sohasida 14,5 mlrd so'mlik 20 ta, qishloq xo'jaligi sohasida 14,1 mlrd so'mlik 22 ta, transport va energetika sohasida 9,6 mlrd so'mlik 11 ta, qurilish sohasida 4,5 mlrd so'mlik 7 ta, oziq-ovqat sohasida 3,3 mlrd so'mlik 5 ta, mashinasozlik, ta'lim va boshqa sohalarda 5,6 mlrd so'mlik 12 ta startap loyihalar umumiy qiymati 70,3 mlrd so'mni tashkil etadi. Ushbu startap loyihalar amalga oshirilishi natijasida 674 ta yangi ish o'rinlari yaratilib, eksportbob va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

Shuningdek joriy yilning 13-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Qirg'iziston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Intellektual mulk va innovatsiyalar davlat agentligi mutasaddi hodimlari o'rtasida onlayn uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuv davomida O'zbekiston-Qirg'iziston innovatsion loyihalari tanlovini o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy jarayonlar muhokama qilindi. Hamkorlikda tashkil qilinadigan tanlov mexanizmlari, yo'nalishlari va muddatlari bo'yicha kelishib olindi. Innovatsion loyihalar tanlovi doirasida olimlar uchun qulaylik yaratish masalalari muhokama qilindi va joriy yilning 2-yarmida qo'shma tanlov tashkil qilinishi bo'yicha kelishuvga erishildi.

### **XULOSA**

Shunday qilib, barqaror o'sish va kengayishning yakuniy bosqichi bo'lib, bu investitsiyalardan chiqish fazasiga tayyorgarlik ko'rish hisoblanadi. Ushbu bosqichda kompaniya foyda yoki zararni qayd etish maqsadida investorning kompaniyadagi ulushini sotishni ko'zda tutuvchi loyihadan chiqishni istiqbolli rejalashtirishga o'tishi va uzoq muddatli korporativ strategiyani ishlab chiqishi lozim. Investorning kompaniyadan chiqishining: to'g'ridan-to'g'ri sotish; ommaviy

oferta (shu jumladan, IPO) orqali sotish; hisobdan chiqarish; imtiyozli aksiyalar qarzlarini to'lab berish; boshqa venchur kapitali egasiga sotish; moliya muassasasini sotish kabi usullari mavjud.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Иванченко Д.А. Роль интернет-пространства в формировании образовательной информационной среды //Дистанционное и виртуальное обучение. 2011. №2. С. 19-31.

2. F.Zakirova va boshqa elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'llanma, T.: OO'MTV, 2010. – 57 b.

3. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov , A.Pardaev, Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.